

BOSHLANG'ICH SINIF FANLARINING TABIIY FANLAR BILAN O'ZARO INTEGRATSIYASI

Mamatova Kamola Fayziyevna

Mirishkor tumani 21- maktab psixologi

<https://doi.org/10.5281/zenodo.15572360>

Annotatsiya. Maqolada boshlang'ich sinf dasturidagi fanlarni o'zaro integratsiya qilib o'rgatish, fanlarni oson va qiziqarli tarzda o'tish, rivojlangan davlatlar tajribasidan foydalangan holda ta'lim jarayonini tashkillashtirish bo'yicha tushunchalar berilgan.

Kalit so'zlar: STEAM, integratsiya, multimedia, texnologiya, dars loyihasi.

Barchamizga ma'lumki, boshlang'ich sinf o'quvchilarining xorijiy tajribalarga moslashtirilib tuzilayotgan darsliklari bir qadar qiyinlik qilyapti. Muammo nimada? O'qituvchi va o'quvchilar saviyasida yoki tarbiyasidami? Moddiy- texnik baza va yo o'qitish uslubidami? Bugungi kunda "integrallashgan dars", "integratsiyaviy yondashuv" tushunchalari faol. Integratsiya lotincha "to'ldirish", "yaxlit", "bir butun" degan ma'noni bildirib, ta'lim jarayonida u bir darsning o'zida bir nechta fanga murojaat qilishdir. O'qituvchi dars loyihasini tuzayotganda ataylab, Dars vositalarini, texnologiyalarni va usullarni boshqa fanlar bilan bog'liqlikda amalga oshirishi nazarda tutiladi. Boshlang'ich sinf dasturidagi tabiiy fan bu to'liq integratsiya hisoblanadi. Bu fandan o'quvchilar 4 ta fanni o'zlashtiradi. Laboratoriya mashg'ulotlari, amaliy va multimediali dars mashg'ulotlari ko'p o'rin egallagan. STEAM texnologiyasi asosida ta'lim beruvchi bu fanni texnologiya, muhandislik, san'at, matematika fanlari bilan bog'liqlikda o'rgatishi kerak. O'simliklar haqidagi mavzuni boshqa fanlar bilan integratsiyasini ko'rib chiqamiz. Texnologiya va muhandislik fanlariga bog'lash: bunda o'quvchi o'zi uyida tuvak yoki yerga gul ekadi, uni parvarishlaydi va bir daftarga gul o'stirish jarayonidagi amaliy ishlarini bosqichma bosqich qayd qilib boradi. Adabiyot bilan bog'lash: gul o'stirish jarayonidagi ichki kechinmalarini qog'ozga yozadi. Bu she'r, hikoya, ertak yohud masal janrida bo'lishi mumkin. Biz bolaning ixtirochilikka, tadqiqotchilikka rag'batini, qiziqishini oshirib borishimiz kerak. Ular ko'proq nazariy bilimlarni amaliyotda sinab ko'rsa, o'z tasavvuriga, umumiy tushunchalardan o'zining fikriga, bilimiga ega bo'ladi. Bilimlari bilimligicha qolib ketmaydi.

Hayoti davomida foydalanishni o'rganadi. Biz bolaga o'rgatishimiz kerak, bugun qanday yangi bilimga ega bo'lsa, u bu bilimni qo'llab ko'rsin. Uni analiz va sintez qilsin. Tabiiy fanlarning ko'pgina masalalari matematik modellashirishni talab qiladi. Matematika tabiiy fanlar uchun universal til hisoblanadi. Fizika qonunlari, kimyoviy reaksiyalar va biologik jarayonlar matematik usullar yordamida aniqlanadi. Matematika o'quvchilarning mantiqiy fikrlash va muammolarni hal qilish qobiliyatlarini rivojlantiradi. Matematika va tabiiy fanlarning uyg'unligi zamonaviy ilm-fan rivojlanishining asosiy poydevorlaridan biridir. Tabiiy fanlar adabiyot bilan uyg'unidir. Badiiy asarlardagi tabiat tasviri, tabiatni asrash tushunchasi va insoniyatning tabiatga keltirayotgan ayanchli zararlarini adabiyot qalamga olib, badiiy so'z bilan ifoda etmoqda. "Oq kema", "Qiyomat", "Boqiy darbadar" Zamonaviy ta'lim tizimi o'quvchilarning har tomonlama rivojlanishini ta'minlashga qaratilgan. Ayniqsa, boshlang'ich ta'lim bosqichida beriladigan bilimlar bolaning kelajakdagi shaxsiy va akademik yutuqlariga asos bo'lib xizmat qiladi. Tabiiy fanlar esa bu jarayonda o'zining real hayotga yaqinligi, kuzatuvchanlikni rivojlantiruvchi xususiyati bilan ajralib turadi. Tabiiy fanlar orqali

o'quvchilarda tabiatga nisbatan ongli munosabat, ilmiy tafakkur va eksperimental faoliyatga bo'lgan qiziqish shakllanadi.

1. Tabiiy fanlarning boshlang'ich ta'limdagi o'rni: Bu fanlar o'quvchilarda atrof-muhitni anglash, kuzatuvchanlik, sabab-oqibatni tushunish, tajriba o'tkazish ko'nikmalarini shakllantiradi. Fanlar o'rtasida integratsiya hosil bo'lishi orqali boladayaxlit tasavvur shakllanadi. Dunyoqarashni shakllantirish – Bolalar tabiat, hayvonot, o'simliklar, ob-havo va boshqa tabiiy hodisalarni o'rganish orqali atrof-muhitni anglay boshlaydilar. Kuzatuvchanlik va tafakkurni rivojlantirish – Tabiiy fanlar o'quvchilarni hodisalarni kuzatish, solishtirish va xulosa chiqarishga undaydi.

References:

Используемая литература:

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Karimov, I. (2018). Biologiya asoslari. Toshkent: O'zbekiston Milliy ensiklopediyasi nashriyoti.
2. Rasulov, B. A. (2020). Kimyo: Umumiy kurs. Toshkent: Fan va Texnologiya.
3. Qodirov, S. T., & To'xtayev, A. S. (2019). "Yerning geologik tuzilishi va uning rivojlanish qonuniyatlari." O'zbekiston tabiiy fanlar jurnali, 23(2), 45-52.
4. Smith, J. & Jones, R. (2016). Fundamentals of Environmental Science. London: Cambridge University Pressomat", " boqiy darbadar".